

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi markaziy apparati tarkibiy bo'linmalarining 2025-yil II yarim yillik

ISH REJASI

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
Direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar va davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi					
1.	Ma'naviyat soatlarini tashkil qilish. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan haftaning har juma kunida eng muhim va dolzarb mavzular haqida ma'lumot berib boruvchi "Siyosiy-ma'rifat soati" ni xodimlar orasida muhokama qilish.	1.Xodimlar ishtirokini ta'minlash. 2.Mavzu bo'yicha fikr almashish.	Amaliy chora-tadbirlar	Har hafta	F. Turayev, tarkibiy bo'linmalar va hududiy boshqarmalar rahbarlari
2.	Vazirlar Mahkamasining "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2021-yil 20-oktabrdagi 662-son qarori ijrosi doirasida, Davlat aktivlari agentligi tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy va idoraviy hujjat loyihalarini ko'rib chiqish va lingvistik xulosa taqdim etish.	1.Normativ-hujjat loyihalarini davlat tilida (lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida) tayyorlash. 2.Normativ-hujjat loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish. 3.Lingvistik ekspertizadan o'tkazish natijasi bo'yicha loyiha matnida aniqlangan xat'o va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq tavsiyalarni ko'rsatgan holda xulosa berish. 4.Maslahatchi xulosasi asosida berilgan tavsiyalar asosida loyiha matnini kelishish uchun vazirlik va idoralarga yuborish.	Amaliy chora-tadbirlar	Doimiy	F. Turayev, tarkibiy bo'linmalar va hududiy boshqarmalar rahbarlari

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
3.	O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 34-yilligi hamda qatag'on qurbonlari xotirasini yod etish kuni munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy hamda xayriya tadbirlarini o'tkazish.	1. Tadbir dasturini ishlab chiqish. 2. "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zolaridan tilshunos olimlarni jalb etish. 3. Tadbirni Davlat aktivlari agentligi rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil avgust-sentabr	F. Turayev, tarkibiy bo'linmalar va hududiy boshqarmalar rahbarlari
4.	21-oktabr – O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan "Qadring baland bo'lsin, ona tilim!" shiori ostida bayram tadbirlarini keng miqyosda o'tkazish.	1. Tadbir dasturini ishlab chiqish. 2. "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zolaridan tilshunos olimlarni jalb etish. 3. Respublika tadbirida ishtirok etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil oktabr	F. Turayev, tarkibiy bo'linmalar va hududiy boshqarmalar rahbarlari
5.	O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan "Ol bayrog'ingni, qalbing uyg'onsin!" mavzusida targ'ibot chellenjini tashkil qilish.	1. Chellenj ssenariysini ishlab chiqish. 2. Xodimlar ishtirokida tasvirga olish. 3. Materialni montaj qilish. 4. Tadbirni Davlat aktivlari agentligi rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil noyabr	F. Turayev, tarkibiy bo'linmalar va hududiy boshqarmalar rahbarlari
6.	Davlat aktivlari agentligining rasmiy veb-saytida "Til – munosabatlar kaliti" nomli rukn ostida "O'zbek tilining izohli lug'ati" kitobidan hozirgi o'zbek adabiy tilida keng qo'llanilayotgan so'zlar, fan, texnika, moliya, iqtisod, madaniyat va san'at sohalariga oid atamalar haqidagi ma'lumotlar berib borish.	1. Matnning elektron variantini tayyorlash. 2. Rasmiy saytdagi "Til – munosabatlar kaliti" sahifasiga joylashtirish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil doimiy	F. Turayev, tarkibiy bo'linmalar va hududiy boshqarmalar rahbarlari
7.	Davlat aktivlari agentligining rasmiy veb-saytida "Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!" g'oyasi asosida "Ma'rifat yog'dusi" nomli rukn orqali Davlat aktivlari agentligining	1. Targ'ibot materiallari matni, video va audio mahsulotlarini tayyorlash. 2. Davlat aktivlari agentligining rasmiy veb-saytiga "Ma'rifat yog'dusi" sahifasiga joylashtirish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil doimiy	F. Turayev, tarkibiy bo'linmalar va hududiy boshqarmalar rahbarlari

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
	xodimlarida vatanparvarlik, faol fuqarolik pozitsiyasi va daxldorlik hissini kuchaytirish maqsadida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni xalqchil, oddiy va ravon tilda, sodda va ta'sirchan usullarda (<i>audio, video materiallar va maqolalar orqali</i>) keng targ'ib qilib borish.				
8.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan "Qomusimni bilmoq istadim" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etish.	1. Tadbir dasturini ishlab chiqish va Ma'naviyat mutaxassisini jalb etish. 2. Tadbirni Davlat aktivlari agentligi rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil dekabr	F. Turayev, tarkibiy bo'linmalar va hududiy boshqarmalar rahbarlari
9.	9-dekabr – "Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" munosabati bilan "Korrupsiya – kelajak kushandasi" shiori ostida xodimlarga korrupsiyaga qarshi faol fuqarolik hissini kuchaytirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlar tashkil etish.	1. Tadbir dasturini ishlab chiqish va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining mutaxassisini jalb etish. 2. Tadbirni Davlat aktivlari agentligi rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil dekabr	F. Turayev, tarkibiy bo'linmalar va hududiy boshqarmalar rahbarlari
10.	O'zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan xodimlar o'rtasida "Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon!" nomli Vatanni madh etuvchi she'r aytish chellenjini tashkil qilish.	1. Chellenji ssenariysini yozish. 2. Tasvirga olish va montaj qilish. 3. Materialni Davlat aktivlari agentligi rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil dekabr	F. Turayev, tarkibiy bo'linmalar va hududiy boshqarmalar rahbarlari
11.	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish	1. Malaka oshirayotgan xodimlarga o'qish jarayonida tashkiliy jihatdan ko'maklashish	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil doimiy	F. Turayev, tarkibiy bo'linmalar va hududiy

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
	yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazida, Davlat aktivlari agentligi tizimidagi korxona va tashkilotlar xodimlarining "Davlat tilida ish yuritish asoslari" bo'yicha malakasi oshirilishini tashkil etish.	2. O'quv kursi tugagandan so'ng Sertifikatlarni topshirish.			boshqarmalar rahbarlari
Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish departamenti					
Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ munosabatlar boshqarmasi					
12.	Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etishni jadallashtirish.	1. Kamida 20 ta Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarning faoliyatiga quyidagi korporativ hujjatlar talablarini joriy etish bo'yicha ularning boshqaruv organlari qarorlarini qabul qilish: - Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari. - Axloq kodeksi. - Korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati. - Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati. - Qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish siyosati. 2. Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni hamda keyingi bosqichda amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha takliflarni rahbariyatga kiritish.	Amaliy chora-tadbirlar Tahliliy ma'lumot	2025-yil 30-oktabr 2025-yil 30-noyabr	S.Qurbonaliyev, Sh.Sofarov, A.Sangilova S.Qurbonaliyev, Sh.Sofarov, A.Sangilova
13.	Davlat ishtirokidagi korxonalarning sonini qisqartirish orqali davlatning iqtisodiyotdagi ulushini qisqartirishda ishtirok etish.	1. Amaldagi qarorlarga asosan tugatilishi belgilangan, biroq bugungi kunga qadar tugatilishi va davlat reyestridan chiqarilishi ta'minlanmagan korxonalar ro'yxatini shakllantirish.	Ro'yxat shakllantirish	2025-yil 30-iyul	S.Qurbonaliyev, Sh.Sofarov, Sh.O'rinov

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
		2. Shakllangan ro'yxat asosida davlat ishtirokidagi korxonalarni tugatish ishlarini jadallashtirish, bunda ixtiyoriy tugatish imkoniyati bo'lmagan korxonalarni to'lovga qobiliyatsizlik tamoyili asosida tugatish choralarini ko'rish. 3. Davlat ishtirokidagi korxonalarda tahlil va samaradorlikni baholash boshqarmasi bilan birgalikda davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tahlil qilgan holda ularni qayta tashkil etish, tugatish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda ishtirok etish.	Amaliy chora-tadbirlar Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil 30-noyabr 2025-yil 30-noyabr	S.Qurbonaliyev, Sh.Sofarov, Sh.O'rinov S.Qurbonaliyev, Sh.Sofarov, Sh.O'rinov
14.	Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatining ochiqqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida ularning korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etilishi holatini "Davlat mulki" axborot tizimi orqali tahlil qilinishini yo'lga qo'yish.	1. "Davlat mulki" axborot tizimiga quyidagi ma'lumotlarni kiritib borish: jamiyatlar kuzatuv kengashi tomonidan o'tkazilgan majlis bayonnomalarini, aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishlari qarorlarini. boshqaruv va nazorat organlari a'zolari to'g'risida ma'lumotlarni. korporativ boshqaruv ko'rsatkichlarini, jumladan: - kuzatuv kengashi va uning huzurida qo'mitalar tashkil etilganligi. - korporativ boshqaruv qoidalari va axloq kodeksini joriy etilganligi. - korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari. - ichki audit xizmati shakllantirilganligi. - komplayens xizmati joriy etilganligi.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil davomida	S.Qurbonaliyev, Sh.Sofarov, J.Sindarov, A.Sangilova, F.Abduvaliyeva, A.Ergashev, Y.Bulanova, K.Shavkatova

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
		- yil yakuni bo'yicha faoliyati tashqi auditdan o'tkazilishi. tizimga ma'lumotlarni joylashtirmagan korxonalarning ijro etuvchi organi a'zolarini rag'batlantirishga yo'l qo'yilmasligi yuzasidan davlat ishtirokidagi korxonalarga ko'rsatma yuborish. 2. Davlat aktivlari agentligi hududiy boshqarma boshliqlarini korxonalar tomonidan ma'lumotlar kiritib borilishini nazorat qilish, ma'lumotlar kiritilmagan taqdirda, sabablarini o'rganish va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorak yakuniga Davlat aktivlari agentligiga ma'lumot kiritib borish bo'yicha mas'ul hisoblanishi to'g'risida hududiy boshqarmalarga ko'rsatma yuborish. 3. "Davlat mulki" axborot tizimiga kiritilgan ma'lumotlar asosida tahliliy ma'lumotlarni har chorak yakuniga Davlat aktivlari agentligi rahbariyatiga kiritish.	Ko'rsatma xat Tahliliy ma'lumot	2025-yil 30-avgust Har chorak yakuni bo'yicha doimiy	S.Qurbonaliyev, Sh.Axmedov, Sh.Sofarov, F.Abduvaliyeva S.Qurbonaliyev, Sh.Axmedov, Sh.Sofarov, F.Abduvaliyeva
15.	Davlat ishtirokidagi korxonalarning faoliyati natijadorligi va davlat mulkidan foydalanish holati to'g'risidagi axborotlarni oshkor qilib borish orqali ularning faoliyati shaffofligini ta'minlash.	Davlat ishtirokidagi korxonalarning faoliyati natijalarini o'z ichiga olgan Yig'ma hisobot ma'lumotlarini shakllantirish	Tahliliy ma'lumot	Doimiy	S.Qurbonaliyev, Sh.Axmedov, Sh.Sofarov, J.Sindarov, A.Sangilova
16.	Davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi a'zolariga nomzodlarni	Davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashlari a'zolari tarkibini doimiy tahlil qilib borish hamda tahlil natijalariga ko'ra kuzatuv	Tahliliy ma'lumot	2025-yil davomida	S.Qurbonaliyev, Sh.Axmedov,

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
	davlat ulushi bo'yicha taklif etish uchun tanlovlarni o'tkazish.	kengashlari tarkibida mavjud bo'sh o'rinlarga amaldagi qonunchilik hujjatlari talablari asosida tanlovlar o'tkazilishini tashkillashtirish.			Sh.Sofarov, F.Abduvaliyeva
17.	Davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi hamda ijroiya organi tarkibida gender tenglikni ta'minlash choralari ko'rish.	1. Davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi hamda ijroiya organi tarkibini tahlil qilish. 2. Tahlil natijalari asosida kuzatuv kengashi tarkibi va rahbarlik lavozimida bo'sh (vakant) bo'lgan lavozimlarga belgilangan tartibda ayol nomzodlarni jalb etish choralari ko'rish.	Tahliliy ma'lumot Amaliy choralar ko'rish	2025-yil avgust 2025-yil avgust	S.Qurbonaliyev, Sh.Axmedov, Sh.Sofarov, F.Abduvaliyeva, A.Sangilova
18.	Davlat ishtirokidagi korxonalarning ijro organining rahbarlik lavozimlari (rahbar va rahbar o'rinbosarlari)ga tanlov asosida malakali mutaxassislarni jalb etish.	1. "Davlat mulki" axborot tizimiga korxonalar tomonidan kiritilgan ma'lumotlar asosida ijroiya organi tarkibida mavjud bo'sh (v.v.b. va vakant) lavozimlarni tahlil qilish va ro'yxatini shakllantirish. 2. Belgilangan bo'sh a'zolik o'rinlarini salohiyatli nomzodlar bilan to'ldirish, jumladan o'rnatilgan tartibda tanlov o'tkazish masalasini boshqaruv organlari yig'ilishlarida ko'rib chiqish tashabbusi bilan chiqish. 3. Korxonalar tomonidan tanlov o'tkazish va malakali menejerlarni jalb etish ustidan monitoring o'rnatish.	Tahliliy ma'lumot Ko'rsatma yuborish Tahliliy ma'lumot	2025-yil avgust 2025-yil davomida Doimiy	S.Qurbonaliyev, Sh.Sofarov, A.Sangilova
19.	Davlat ishtirokidagi korxonalarga korporativ boshqaruvni takomillashtirish yuzasidan ilg'or amaliyot almashinuvini joriy etish.	Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun har chorak xalqaro moliya tashkilotlari, ilg'or mahalliy va xorijiy ekspertlar ishtirokida korporativ boshqaruv sohasida xalqaro konferensiyalar (davra suhbatlari va seminarlar) o'tkazish.	Kompleks chora-tadbirlar	Har yili	S.Qurbonaliyev, Sh.Axmedov, Sh.Sofarov, M.Ibragimov, F.Abduvaliyeva, A.Sangilova

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
20.	Davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashlari tarkibiga mustaqil a'zolar jalb etish	1. Davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga tanlovlar o'tkazilishini tashkillashtirish. 2. Davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zolari kiritish bo'yicha aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishlari o'tkazilishini tashkillashtirish.	Ko'rsatma yuborish Tahliliy ma'lumot	2025-yil davomida	S.Qurbonaliyev, Sh.Sofarov, F.Abduvaliyeva, K.Shavkatova
21.	O'zbekiston Respublikasining "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga asosan DUKlarni tashkiliy huquqiy shaklini tugatish.	1. DUKlarni tashkiliy huquqiy shaklini tugatishga doir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini ishlab chiqish va tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish. 2. Vazirlik va idoralar bilan kelishilgan qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 3. Unitar korxonalarning tashkiliy-huquqiy shaklini AJ, MCHJ yoki davlat muassasasiga aylantirish ishlarini tashkillashtirish.	Qaror loyihasi ishlab chiqish	2025-yil 1-iyul 2025-yil 30 iyul 2025-yil davomida	S.Qurbonaliyev, Sh.Sofarov, Sh. O'rinov
22.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son Farmoni ijrosini ta'minlash.	1. Farmonga muvofiq xususiylashtirilishi belgilangan korxonalarni Davlat aktivlari agentligiga o'tkazilishini ta'minlash. 2. Davlat aktivlari agentligiga topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan o'tkazilgan korxona va jamiyatlarni ta'xis hujjatlariga tegishli o'zgartirish kiritish.	Ko'rsatma yuborish	2025-yil davomida	S.Qurbonaliyev, Sh.Sofarov, Sh. O'rinov

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
Davlat ishtirokidagi korxonalarning tahlil va samaradorlikni baholash boshqarmasi					
23.	Davlat ishtirokidagi korxonalarining samarali biznes-rejalarini ishlab chiqilishini va ularning ijrosini monitoring qilish.	1. Davlat ishtirokidagi korxonalarning 2026-yilga mo'ljallangan biznes-rejalarini tasdiqlanishini (ma'qullanishi) ta'minlash bo'yicha ko'rsatma xat yuborish. 2. Davlat ishtirokidagi korxonalarning 2025-yil 1-yarim yillik va 9-oylik yakunlari bo'yicha biznes-reja va samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni Davlat aktivlari agentligining www.kpi.Davlat.aktivlari.uz saytiga joylashtirilishini ta'minlash.	Biznes-reja loyihasini boshqaruv organlarida ko'rib chiqilishini ta'minlash Ma'lumotlar elektron bazasi	2025-yil 1-noyabr 2025-yil 15-avgust (2025-yil 1-yarim yillik) 15-noyabr (2025-yil 9-oylik)	S. Qurbonaliyev, Sh. Axmedov, A. Tugizboyev S. Qurbonaliyev, Sh. Axmedov, A. Tugizboyev, Boshqarma xodimlari, Hududiy boshqarmalar
24.	Davlat ishtirokidagi korxonalar ijroiya organ faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlarini (SMK) joriy etilishini ta'minlash va monitoringini yuritish.	1. Davlat ishtirokidagi korxonalar ijroiya organ faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlari (KPI)ning joriy etilishi va e'lon qilinishi holatini tarmoq, korxonalar va viloyatlar kesimida tahlil qilish. 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.08.2019-yildagi PQ-4426-son qaroriga asosan, davlat ishtirokidagi 60 ta yirik korxona rahbarining mahalliyashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish hamda axborot texnologiyalar masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosarining faoliyat samaradorligini baholash mezonlari (KPI)ning joriy etilishi, hisoblanishi va bajarilishining monitoringini amalga oshirish va natijasi bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga ma'lumot kiritish.	Tahliliy ma'lumot	2025-yil 15-noyabr 2025-yil 15-avgust (2025-yil 1-yarim yillik yakuni bo'yicha) 15-noyabr (2025-yil 9-oylik yakuni bo'yicha)	S. Qurbonaliyev, Sh. Axmedov, D. Mamatqulov, Boshqarma xodimlari S. Qurbonaliyev, Sh. Axmedov, D. Mamatqulov

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
25.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-martdagi PQ-101-son qaroriga asosan davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalarida samarali dividend siyosatining yuritilishini muvofiqlashtirish.	1. Davlat ishtirokidagi korxonalarning davlat ulushlari bo'yicha dividendlarni (ajratmalarni) xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lanishini ta'minlashda Soliq qo'mitasiga ko'maklashish. 2. Davlat ulushi bo'yicha hisoblangan va to'langan dividendlarning (ajratmalarning) hisobini monitoringini yuritish. 3. Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2024-yil yakuni bo'yicha 2025-yilda hisoblangan va to'langan dividendlar (ajratmalar) to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlarni rahbariyatga kiritish.	Soliq qo'mitasi bilan hamkorlikda Tahliliy ma'lumot Tahliliy ma'lumot	2025-yil 1-sentabr Har oyning 5-sanasida 2025-yil 1-oktabr	S. Qurbonaliyev, Sh. Axmedov, E. Sultonov
26.	Davlat ishtirokidagi korxonalar va ularning tarkibidagi korxonalar to'g'risidagi hisobotlar va axborot, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Adliya vazirligi, Investitsiya, sanoat va savdo vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi bilan idoralararo elektron hujjat aylanishi vositasida olinadigan hisobotlar asosida tahlil va monitoring qilish.	1. Davlat ishtirokidagi korxonalarning 2025-yil 1-yarim yillik va 9-oylik yakunlari bo'yicha bo'yicha biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishini va ijro organi faoliyatining samaradorlik muhim ko'rsatkichlarini tahlil qilish hamda natijasi yuzasidan korxonalarning boshqaruv organlariga ko'rsatmalarni yuborish. 2. Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan ketma-ket ikki chorak mobaynida biznes-rejaning asosiy parametrlari bajarilmagan yoki ijroiya organ faoliyati SMK qoniqarsiz yoki past darajada baholangan taqdirda ijroiya organi bilan mehnat munosabatlarini davom ettirishning maqsadga muvofiqligi masalasini ko'rib chiqish bo'yicha korxonalarga ko'rsatma yuborish.	Boshqaruv organlariga ko'rsatma xat Tahliliy ma'lumot, biznes-reja va SYK bajarilmagan korxonalar ro'yxati va korxonalarga xat loyihasi	2025-yil 1-sentabr (2025-yil 1-yarim yillik) 1-dekabr (2025-yil 9-oylik) 2025-yil 15-sentabr (2025-yil 1-yarim yillik) 15-noyabr (2025-yil 9-oylik)	S. Qurbonaliyev, Sh. Axmedov, A. Tugizbayev, Boshqarma xodimlari, Hududiy boshqarmalar S. Qurbonaliyev, Sh. Axmedov, A. Tugizbayev, D. Mamatqulov, Boshqarma xodimlari

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
27.	Davlat ishtirokidagi korxonalarning import va eksportni amalga oshirish holatini tahlil qilish.	1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.08.2020-yildagi PQ-4812-son qaroriga asosan, davlat ishtirokidagi korxonalarning mahalliyashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish hamda axborot texnologiyalari masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosarining faoliyatini kuzatuv kengashlarida ko'rib chiqilganligini tahlil qilish va natijalari bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga ma'lumot kiritish. 2. Bojxona qo'mitasi tomonidan taqdim etiladigan bojxona omborlarida saqlanayotgan, muddati uch oydan oshgan tovarlarning nomenklaturasi va hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida davlat ishtirokidagi korxonalarga ko'rsatma yuborish. 3. Korxonalar tomonidan amalga oshirilgan import va eksport hajmlari to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlar asosida importni qisqartirish va eksportni oshirish bo'yicha ularga ko'rsatmalarni yuborish.	Tahliliy ma'lumot va Vazirlar Mahkamasiga axborot Tahliliy ma'lumot Tahliliy ma'lumot	2025-yil 30-avgust (2025-yil 1-yarim yi) 2025-yil 1-dekabr (2025-yil 9 oylik) Har oyning 15-sanasiga qadar Har chorakning yakuni bo'yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar	S. Qurbonaliyev, Sh. Axmedov, D. Mamatqulov, Boshqarma xodimlari S. Qurbonaliyev, Sh. Axmedov, D. Mamatqulov, Boshqarma xodimlari S. Qurbonaliyev, Sh. Axmedov, D. Mamatqulov, Boshqarma xodimlari
28.	Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan ularning veb-saytlariga qo'yiladigan talablarga rioya etilishini monitoring qilish.	1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-fevraldagi 81-son qaroriga asosan, davlat ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlari tomonidan ularning veb-saytlariga qo'yiladigan talablarga rioya etilishini monitoringini yuritish. 2. Vazirlik va idoralarning rasmiy veb-saytlarida davlat ishtirokidagi korxonalarning asosiy ko'rsatkichlari joylashtirilganligi monitoringini yuritish.	Tahliliy ma'lumot va Vazirlar Mahkamasiga taklif	Har chorak yakunidan keyingi oyning 15-sanasiga qadar	S. Qurbonaliyev, Sh. Axmedov, E. Sultanov, Boshqarma xodimlari

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
		3. Monitoring natijasi bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga ma'lumot kiritish.			
29.	Hududiy boshqarmalar va idoraviy mansub tuzilmalar bilan birgalikda yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishini ta'minlash.	1. Xorijiy tajribalarni o'rganish maqsadida, davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirish dasturlarini ishlab chiqishda xorijiy maslahatchilar va Xalqaro hamkorlik va protokol bo'limi bilan hamkorlikda ishlash. 2. Xalqaro moliya institutlarining Departament faoliyatiga bog'liq o'quv kurslarida ishtirok etish.	Taklif tayyorlash Ishtirok etish	2025-yil 1-oktabr 2025-yil iyul-dekabr	S. Qurbonaliyev, Sh.Axmedov, M. Ibragimov Boshqarma xodimlari S. Qurbonaliyev, Sh.Axmedov, M. Ibragimov Boshqarma xodimlari
30.	Davlat ishtirokidagi korxonalarining yil yakuni bo'yicha moliyaviy natijadorlikka erishganligi va amalga oshirgan ishlari yuzasidan jamoatchilikka hisobotini e'lon qilish tartibini joriy etish.	1. Davlat ishtirokidagi korxonalar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish. 1.1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi "2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 166-son qarori ijrosi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida OAVlarida va Davlat aktivlari agentligi saytida maqolalar chop qilish. 1.2. Davlat ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiyotdagi o'rni va ulushi, moliyaviy natijalari, biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishi va boshqa muhim axborotlarni o'z ichiga oluvchi davlat ishtirokidagi korxonalarning yig'ma hisobotini Davlat aktivlari agentligining veb-saytida e'lon qilish.	Tahliliy ma'lumot Yig'ma hisobot	2025-yil iyun-iyul 2025-yil 1-avgust	S. Qurbonaliyev, Sh. Axmedov, M. Ibragimov, Boshqarma xodimlari

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
31.	“Yo'l xaritalari”ning bajarilishi bo'yicha ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish orqali ularning amalga oshirilishini monitoring qilish.	1. Davlat ishtirokidagi zarar ko'rgan va iqtisodiy tavakkalchilik holatidagi korxonalarni 2025-yilda moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan “yo'l xaritalari” – dasturlari ijrosini monitoring qilish va natijasi bo'yicha tegishli ma'lumotlarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Tahliliy ma'lumot	Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar (Hisobot yili yakuni bo'yicha 2026-yil 1-aprelga qadar)	S. Qurbonaliyev Sh. Axmedov O'. Muxammadiyev, Sh. Xalilov, F. Radjabov, Hududiy boshqarmalar
32.	“Yo'l xaritalari”ning bajarilishida korxonalarga ko'maklashish.	Davlat ishtirokidagi 2025-yilda moliyaviy sog'lomlashtiriladigan korxonalarning har biriga chiqqan holda “Yo'l xaritalari” – dasturlarining puxta ishlab chiqilishi va ijrosi monitoringini ta'minlash.	Zaruratga ko'ra, korxonalarga chiqqan holda	Zaruratga ko'ra	S. Qurbonaliyev Sh. Axmedov O'. Muxammadiye, Sh. Xalilov, F. Radjabov, Hududiy boshqarmalar
33.	“Yo'l xaritalari”ning bajarilishida davlat organlariga va tegishli tashkilotlarga yuzaga kelayotgan muammoli masalalarni hal qilishga ko'maklashish yuzasidan iltimosnoma yuboradi, shuningdek, iltimosnoma bajarilmagan taqdirda bajarilishi majburiy bo'lgan talabnoma yuborish.	Moliyaviy sog'lomlashtirish qaratilgan tasdiqlangan “Yo'l xaritalari” – dasturlaridagi chora-tadbirlar ijrosi bo'yicha yuzaga keladigan masalalar yuzasidan korxonalarga ko'maklashish.	Mas'ul tashkilotlarga ko'rsatma xatlari	Murojaat kelib tushgandan so'ng 10 kun muddatda	S.Qurbonaliyev Sh.Axmedov O'.Muxammadiyev, Sh.Xalilov, F.Radjabov, Hududiy boshqarmalar
34.	To'lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega bo'lmagan iqtisodiy nochor davlat ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlariga nisbatan o'rnatilgan tartibda jamiyatlar ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushlarini	Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining davlat ishtirokidagi korxonalarni sotish bo'yicha kiritiladigan takliflariga, jumladan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga tegishli takliflar tayyorlashda qatnashish.	Tegishli xulosa	Belgilangan muddatlarda	S.Qurbonaliyev, O'.Muxammadiyev, Sh.Xalilov, F.Radjabov Hududiy boshqarmalar

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
	sotish yoki to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini qo'llash bo'yicha taklif ishlab chiqish.				
35.	davlat mulkiga egalik qilish mezonlariga muvofiq bo'lmagan, realizatsiya qilinishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi lozim bo'lgan davlat ishtirokidagi korxonalar ro'yxatini har yili 1-oktyabrga qadar bo'lgan muddatda tasdiqlash choralarini ko'rish.	1. Realizatsiya qilinishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi lozim bo'lgan davlat ishtirokidagi korxonalar ro'yxatini shakllantirish. 2. Tasdiqlangan ro'yxatga asosan, normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va manfaatdor vazirlik va idoralar bilan o'rnatilgan tartibda kelishish. 3. Manfaatdor vazirlik va idoralar takliflari asosida Normativ-huquqiy hujjat loyihasi qayta ishlab chiqqan holda Vazirlar mahkamasiga kiritish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2025-yil 1-oktyabr	S.Qurbonaliyev, Sh.Axmedov, E.Sultanov, Boshqarma xodimlari, Hududiy boshqarmalar
Davlat mulkini xususiylashtirish departamenti					
Davlat aktivlarini xususiylashtirish va xususiylashtirishga tayyorlash boshqarmasi					
36.	Davlat aktivlarni savdoga chiqarish.	1. Tasdiqlangan xususiylashtirish dasturiga muvofiq davlat aktivlarini xususiylashtirish ishlarini tashkillashtirish. 2. Davlat aktivlarini xususiylashtirishga tayyorlash ishlarini amalga oshirish hamda ularni ommaviy savdolarga chiqarish.	Chora-tadbirlar amalga oshirish	Doimiy 2025-yil iyul-dekabr	T. Samandarov, Hudud bo'yicha kuratorlar, Hududiy boshqarmalar
37.	Davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirishdan oldin tayyorlash bo'yicha samarali ishlashni tashkil etish.	Davlat ishtirokidagi korxonalarining xususiylashtirishga tayyorlashda ustuvor ravishda oliy toifali baholovchi tashkilotlarni jalb qilish.	Tender o'tkazish	Doimiy	Hududiy boshqarmalar, T. Samandarov, Hudud bo'yicha kuratorlar
38.	Davlat aktivlarini xususiylashtirish.	1. Xususiylashtirish dasturlariga asosan davlat aktivlarini savdolarga chiqarish.	Reja-grafik bo'yicha	2025-yil davomida	T.Samandarov, Hudud bo'yicha kuratorlar,

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
		2. Savdolarga chiqarilgan davlat aktivlarini xususiylashtirish hajmini 30 000,0 mlrd so'mga yetkazish.			Hududiy boshqarmalar
39.	Maxsus iqtisodiy zonalar direksiyalari qarorlari bo'yicha sotiladigan davlat mulki obyektlaridan tashqari xususiylashtirish obyektlarining sotuvchisi funksiyasini amalga oshirish, ularning boshlang'ich sotuv narxini, investitsiyalar hajmini, savdolarining turi va shartlarini belgilash, shu jumladan, davlatga tegishli qimmatli qog'ozlarni mustaqil ravishda yoki shartnoma asosida jalb etiladigan mahalliy va xorijiy investitsiya vositachilari orqali xususiylashtirilishini tashkillashtirish.	Xususiylashtirish dasturlariga muvofiq, 450 ta davlat aktivlarini ommaviy savdolarga chiqarish choralarini ko'rish.	Savdoga chiqarish buyrug'i	2025-yil iyul-dekabr	T.Samandarov, Hudud bo'yicha kuratorlar, Hududiy boshqarmalar
40.	"Road show" va biznes forumlarda investorlarga istiqbolli investitsiya loyihalari va xususiylashtirilayotgan davlat aktivlari bo'yicha ishtirok etish.	1. Xususiylashtirilayotgan davlat aktivlari to'g'risida taqdimot materiallarini tayyorlash. 2. "Road show" va biznes forumlar tashkil etish tashkillashtirishda ishtirok etish.	Taqdimot materiallarini tayyorlash.	2025-yil avgust 2025-yil avgust-dekabr	Xalqaro hamkorlik va protokol bo'limi T.Samandarov, Hududiy boshqarmalar
41.	Hududiy boshqarmalar, vazirlik va idoradan davlat aktivlarini xususiylashtirish bo'yicha kelib tushgan takliflar shuningdek amaldagi qarorlarga asosan xususiylashtirilishi belgilangan davlat aktivlarini sotish shakli va usullarini tasdiqlash bo'yicha umumlashtirilgan takliflarini doimiy ravishda Davlat aktivlarini xususiylashtirish va xususiylashtirish	Hududiy boshqarmalar, vazirlik va idoradan davlat aktivlarini xususiylashtirish bo'yicha kelib tushgan takliflar shuningdek amaldagi qarorlarga asosan xususiylashtirilishi belgilangan davlat aktivlarini sotish shakli va usullarini tasdiqlash bo'yicha takliflarni umumlashtirib Davlat aktivlarini xususiylashtirish va xususiylashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish davlat komissiyasining yig'ilishlari kun tartibiga kiritib borish.	Komissiya bayonnomasi	Doimiy	T.Samandarov, Hudud bo'yicha kuratorlar, Hududiy boshqarmalar

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
	jarayonlarini muvofiqlashtirish davlat komissiyasining yig'ilishlari kun tartibiga kiritib borish.				
42.	Amaldagi xususiylashtirish dasturlariga kiritilgan aktivlar holatini muntazam ravishda monitoring qilib borish.	Amaldagi xususiylashtirish dasturlariga asosan ommaviy savdolar orqali sotilishi belgilangan aktivlarning savdoga chiqarish jarayonlarini "Davlat mulki" AT va monitoring.Davlat aktivlari.uz elektron platformasida muntazam ravishda monitoring qilib borish hamda topshiriqlarga asosan tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash.	Jadval	Doimiy	T.Samandarov, Hudud bo'yicha kuratorlar, Hududiy boshqarmalar
Yerlarni xususiylashtirishni muvofiqlashtirish bo'limi					
43.	Yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish.	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan 3 472,4 gektar (3-chorakda – 1 836,4 gektar, 4-chorakda – 1 636 gektar) yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish. Bunda: 1. Hududiy boshqarmalar tomonidan bo'sh turgan yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish uchun "Yerelektron" AATga kiritish holatlarni tahlil qilish hamda aniqlangan va kamchilliklarga yo'l qo'ygan boshqarmalarga tegishli xatlarni chiqarish. 2. "Yerelektron" AATga kiritilgan yer uchastkalarini vakolatli tashkilot tomonidan kelishish va xulosa berish jarayonlarini monitoring qilish. 3. Vakolatli tashkilot tomonidan kelishish va xulosa berish jarayonida muddat buzish holati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari	Amaliy chora-tadbir	2025-yil II-yarim yillik davomida Har chorakning yakuni bo'yicha keyingi oyning 10-sanasiga qadar Doimiy Har chorakning yakuni bo'yicha keyingi oyning 10-sanasiga qadar	T.Samandarov, Sh.Sattorov, E.Ulug'ov, M.Ibrohimov, N.Najmiddiniv, A.Sulaymonov, Sh.Omonov Z.O'roqov, Hududiy boshqarmalar

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
		va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoniga murojaat yuborish. 4. Vakolatli organlar bilan kelishuv jarayonlarini yakunlagan holda yuborilgan yer uchastkalarini aukcion savdolariga chiqarish.		Kelishuv jarayonlarini yakunlangan holda yuborilganda bir ish kuni ichida	
44.	Nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun respublika bo'yicha yer uchastkalarini aukcionga chiqarish.	1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini "Yerelektron" AATga kiritilgan yer uchastkalarini vakolatli tashkilot tomonidan kelishish va xulosa berish jarayonlarini monitoring qilish. 2. Vakolatli tashkilot tomonidan kelishish va xulosa berish jarayonida muddat buzish holati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoniga murojaat yuborish. 3. Vakolatli organlar bilan kelishuv jarayonlarini yakunlagan holda yuborilgan yer uchastkalarini nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun aukcion savdolariga chiqarish.	Amaliy chora-tadbir	Doimiy Har chorakning yakuni bo'yicha keyingi oyning 10-sanasiga qadar Belgilangan muddatlarda	Sh.Sattorov, E.Ulug'ov, M.Ibrohimov, N.Najmiddiniv, A.Sulaymonov, Sh.Omonov, Z.O'roqov, Hududiy boshqarmalar
45.	Hududlarda savdo, maishiy, sayilgoh va ko'ngilochar xizmatlarini rivojlantirish maqsadida bo'sh yer uchastkalarini aukcion savdolariga chiqarish	1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini "Yerelektron" AATga kiritilgan yer uchastkalarini vakolatli tashkilot tomonidan kelishish va xulosa berish jarayonlarini monitoring qilish. 2. Vakolatli tashkilot tomonidan kelishish va xulosa berish jarayonida muddat buzish holati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti	Amaliy chora-tadbir	2025-yil II-yarim yillik davomida Har chorakning yakuni bo'yicha keyingi oyning	Sh.Sattorov, E.Ulug'ov, M.Ibrohimov, N.Najmiddiniv, A.Sulaymonov, Sh.Omonov, Z.O'roqov,

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
		huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoniga murojaat yuborish. 3. Vakolatli organlar bilan kelishuv jarayonlarini yakunlagan holda yuborilgan yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish.		10-sanasiga qadar Kelishuv jarayonlarini yakunlagan holda yuborilganda bir ish kunida	Hududiy boshqarmalar
46.	Maydoni 1 gektar (shaharlarda 0,2 gektar) va undan ortiq bo'lgan yer uchastkasida savdo kompleksi, logistika markazi va xizmat ko'rsatish kompleksini tashkil etish uchun. turizm hududi sifatida belgilangan mahallalarni rivojlantirish uchun. yer uchastkasini qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar toifasidan chiqarib, savdo va xizmat ko'rsatish, shu jumladan, yo'l bo'yi infratuzilmasi obyektlarini tashkil etish uchun master-reja ishlab chiqilishini va u asosida realizatsiya qilinishi holatlarini o'rganish.	Professional loyiha tashkiloti bilan shartnoma tuzgan holda yer uchastkalarini tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun master-reja ishlab chiqilishini nazorat qilib borish hamda Hududiy boshqarmalarga ko'maklashish	Tahliliy ma'lumot	Har oy yakuni bo'yicha keyingi oyning 10-sanasiga qadar	Sh.Sattorov, E.Ulug'ov, M.Ibrohimov, N.Najmiddiniv, A.Sulaymonov, Sh.Omonov, Z.O'roqov.
47.	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish bo'yicha davlat orderini berilishini tashkil etish	1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish bo'yicha 5 000 ta (3-chorakda – 2 000 ta , 4-chorakda – 3 000 ta) davlat orderini berish. 2. Fuqarolar va yuridik shaxslarga tegishli (egaligidagi) yer uchastkalarini xususiylashtirishni keng targ'ib qilish jarayonida mahalla fuqarolari	Amaliy chora-tadbir	2025-yil II-yarim yillik davomida Doimiy ravishda	Sh.Sattorov, E.Ulug'ov, M.Ibrohimov, N.Najmiddiniv, A.Sulaymonov, Sh.Omonov, Z.O'roqov,

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
		yig'ini raislari va hokim yordamchilarini jalb qilishda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining hududiy boshqarmalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish. 3. Aholi punktlarining mavjud shaharsozlik hujjatlariga muvofiq daha, massiv, mahalla, ko'cha va alohida olingan hududlar kesimida fuqarolar va yuridik shaxslarga yer uchastkalarini xususiy lashtirishning afzalliklarini targ'ib etish. 4. "Yerxususiy lashtirish" AATga kiritilgan yer uchastkasini xususiy lashtirish bo'yicha arizalarni ko'rib chiqish jarayonini tezlashtirish bo'yicha tuman qurilish bo'limi hamda kadastr organlari hamkorligida tizimli ish tashkil etish. 5. "Yerxususiy lashtirish" AATga kelib tushgan arizalarni ko'rib chiqish jarayonida muddatlari buzilgan holatda xulosa beruvchi vakolatli organlarga hamda Adliya vazirligiga tegishli xat yuborish. 6. Vakolatli tashkilotlar tomonidan yer uchastkasini xususiy lashtirish bo'yicha ijobiy xulosa taqdim etilib, fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan yer uchastkalarini sotib olish to'lovlari to'liq to'langandan so'ng hududiy boshqarmalar tomonidan yerga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi davlat orderini berishni nazorat qilish.		Doimiy ravishda Doimiy ravishda Har chorakning yakuni bo'yicha keyingi oyning 10-sanasiga qadar Sotib olish to'lovlari to'liq to'langanda bir ish kunida	Hududiy boshqarmalar
48.	"O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"	Hududiy boshqarmalar tomonidan yer uchastkasining elektron onlayn-auksionga qo'yilganlik yoki qo'yilmaganlik holati to'g'risidagi, shuningdek binolar va inshootlar,	Amaliy chora-tadbir	Har chorakning yakuni bo'yicha keyingi oyning	Sh.Sattorov, E.Ulug'ov, M.Ibrohimov, N.Najmiddiniv,

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
	Qonunga asosan, o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish bo'yicha xulosalarni to'g'ri berilishini muvofiqlashtirish.	shu jumladan yakka tartibdagi uy-joylar xususiylashtirilganligi yoki xususiylashtirilmaganligi to'g'risidagi xulosalarni o'z vaqtida va qonunchilikka mos tartibda berilishi yuzasidan monitoring olib borish hamda aniqlangan holatlar yuzasidan tegishli xatlarni yuborish.		10-sanasiga qadar	A.Sulaymonov, Sh.Omonov, M.O'roqov, Hududiy boshqarmalar
49.	Yer uchastkalarini xususiylashtirish, auksion savdolariga chiqarish hamda o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etishda tegishli elektron axborot tizimlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish, takomillashtirish va soddalashtirish yuzasidan (ishchi tartibida) taklif kiritib borish.	1. Fuqarolar va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan yer uchastkalarini xususiylashtirishda "Yerxususiylashtirish" AATdan foydalanuvchilarga qulayliklar yaratish maqsadida tizim foydalanuvchilarining umumlashtirilgan takliflari asosida Zamonaviy IT texnologiyalarini joriy etish departamentiga takliflar kiritib borish. 2. Normativ-huquqiy hujjatlar doirasida yer uchastkalarini xususiylashtirishda jarayonlarini soddalashtirish va "Yerelektron" AATdan foydalanuvchilarga qulayliklar yaratish bo'yicha Kadastr agentligiga takliflar kiritib borish. 3. Davlat aktivlari agentligining hududiy boshqarmalarini takliflari hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarishda "E-auksion" elektron savdo platformasiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha "Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish" AJga takliflar kiritib borish. 4. O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etishda	Taklif kiritish	Zaruratga ko'ra	Sh.Sattorov, E.Ulug'ov, M.Ibrohimov, N.Najmiddiniv, A.Sulaymonov, Sh.Omonov, M.O'roqov.

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
		xulosalar berish jarayonlar soddalashtirish hamda elektronlashtirish bo'yicha "E'tirof" ATga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan Kadastr agentligiga takliflar kiritib borish.			
Davlat mulki va yer uchastkalarini sotish shartnomalarini rasmiylashtirish va monitoring bo'limi					
50.	Xususiylashtirish obyektlarining oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha Davlat aktivlari agentligi tomonidan tuziladigan bitimlarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishi, shu jumladan, investorlar tomonidan investitsiya majburiyatlarining bajarilishi monitoringini yuritish.	1. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktabrdagi 279-son qaroriga asosan "Davlat mulki" axborot tizimi orqali investorning shaxsiy kabinetida kiritilgan hisobotlar va tegishli vazirlik va idoralarning axborot tizimlaridan olingan ma'lumotlar asosida oldi-sotdi shartnomasida belgilangan investitsiya majburiyatlarining bajarilishi bo'yicha monitoring olib borish. 2. Oldi-sotdi shartnomalarida belgilangan investitsiya majburiyatlarining bajarilishi bo'yicha monitoring olib borish.	Monitoring o'tkazish Komissiyani tashkil etish bo'yicha buyruq	2025-yil iyul-dekabr oylari Oldi-sotdi shartnoma amal qilish muddati tugagunga qadar har chorakda Mustaqil auditorlik va baholovchi tashkilot hisoboti taqdim etilgandan so'ng 10 kun muddatda	T.Samandarov, Sh. Qurbonboyev, Sh. Yunusov, Sh.Madixonov Hududiy boshqarmalar

T/r	Tarkibiy bo'linma faoliyati uchun belgilangan asosiy ustuvor vazifalar	Amalga oshirish tadbirlari	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
